

Date: 17th June-2026

BO‘LAJAK MUSIQA FANI O‘QITUVCHILARIDA MUSIQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Orziboyev Rustam Abdumutalibovich

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda musiqiy madaniyatni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi haqida so‘z yuritilgan.

Аннотации: В данной статье говорится, что формирование музыкальной культуры у студентов является актуальной педагогической проблемой.

Annotation: This article states that the formation of musical culture among students is an urgent pedagogical problem

Kalit so‘zlar: fortepiano, xor orkestr, opera san’ati, musiqiy madaniyat, estetik, axloqiy madaniyat.

Ключевые слова: фортепиано, хоровой оркестр, опера, музыкальная культура, эстетика, нравственная культура.

Keywords: piano, choir orchestra, opera, musical culture, aesthetics, moral culture

Ijtimoiy-madaniy hayotimiz tobora farovonlashishi pirovardida jamiyatimizda madaniyat va san’at yo‘nalishidagi kasblarga qiziqish kuchayib borayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa ushbu yo‘nalishlarda tayyorlanadigan kadrlarning kasbiy saviyasi va bilimi yanada yuqori bo‘lishini taqozo etmoqda. O‘z navbatida, mazkur holat musiqa ta’limi tizimida yangicha munosabatlarning shakllanishiga sabab bo‘ldi va tayyorlanadigan kadrlarning kasbiy darajasiga bo‘lgan talablar ham oshib borayotir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda musiqiy ta’limni hamda o‘zbek musiqiy madaniyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlarni aniqlash, maxsus o‘quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish borasidagi islohotlar oliy ta’lim muassasalari talabalarini musiqiy madaniyatini rivojlantirishning samarali yo‘llari, shakl, metod va usullari joriy etish imkoniyatini oshirdi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari talabalarida musiqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “musiqa va san’at ta’limini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, yoshlar e’tiborini musiqa va san’atga qaratish, yosh iqtidorli ijodkorlarni izlab topish va ularning ijodini rag‘batlantirish” [1] vazifalari belgilangan. Bu borada musiqiy qadriyat va musiqiy madaniyatni shakllantirishning o‘zaro aloqadorligini tahlil etish asosida musiqiy madaniyatni rivojlantirishning falsafiy, pedagogikpsixologik omillarini aniqlash, musiqiy madaniyatni tarkib toptirishning pedagogik mexanizmlarini milliy-musiqiy asarlardagi qadriyatlar bilan mujassamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talaba yoshlarning musiqiy madaniyatini shakllantirishni takomillashtirishda metodologik asos bo‘lib, buyuk qomusiy olimlar Abu Nasr Forobiy, Abdurahmon Jomiy,



Date: 17th June-2026

Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Darvesh Ali Changiylarning ilmiy meroslari musiqiy tarbiya muammolarini hal etishda zaruriy manba bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, san'atning turli janrlari vositasida estetik tarbiyani shakllantirish muammolari S. Bulatov, B. Azimov, S. Annamuratova, O. Vasilchenko, Sh. Janaydarov, F. Jo'raev, D. Kamolova, H. Nurmatov, F. Xalilov, A. Hasanovlarning ishlarida tadqiq etilgan; o'zbek mumtoz musiqiy merosi, folklor qo'shiqlarining tarixi, nazariyasi xususiyatlarini R. Abdullaev, S. Begmatov, T. Vizgo, O. Ibrohimov, F. Karomatov, I. Rajabov, T. G'ofurbekov, B. Qodirov, M. Qodirov, E. Fayzullayevlarning ishlarida yoritilgan.

G. Najmetdinov, B. Karomatova, D. Djamolovalar musiqiy-pedagogik ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish bo'yicha izlanishlar o'tkazgan.

"Madaniyat" tushunchasi ma'lum tarixiy davrlar, muayyan jamiyatlar, xalqlar va elatlarni, shuningdek, faoliyat va hayotning (mehnat madaniyati, siyosiy madaniyat) o'ziga xos sohalarini ta'riflash uchun qo'llaniladi; nisbatan tor ma'noda esa – odamlarning ma'naviy hayoti sohasidir. U odamlar faoliyatining predmetga oid natijalarini (mashinalar, inshootlar, anglash natijalari, san'at asarlari, ahloq va huquq meyorlari va hokazo), shuningdek, faoliyat davomida (bilimlar, ko'nikmalar, mahoratlar, intellekt darajasi, ma'naviy va estetik rivojlanish, dunyoqarash, odamlar muloqotining shakl va usullari) qo'llaniluvchi inson kuchi va imkoniyatlarini qamrab oladi. Bundan ko'rinib turibdiki, madaniyat – bu insonning ham faoliyatga ham shaxsiyatga oid xususiyatidir. U insonning tafakkuri va o'z-o'ziga bo'lgan munosabati darajasini aks ettiradi [3, 678].

Musiqiy bilimlarni shaxs ongida idrok etilishi uning hissiyotini qo'zg'aydigan, insonda huzur-halovat, quvonch va g'amginlik kabi his-tuyg'ularni paydo qiladigan holatdir. Inson musiqani yuksak estetik his qilgandagina musiqa unga estetik ta'sir etadi. Ushbu jarayonda shaxsning musiqaga oid ehtiyojlari bilimga aylanib, e'tiqod shakllanadi. E'tiqod asosida musiqiy mahorat musiqiy madaniyatni shakllantirish malaka va ko'nikmasini paydo qiladi va u muayyan faoliyatga aylansa, musiqiy madaniyat shakllangan bo'ladi.

Musiqiy madaniyatning shakllanishi – bu inson ongida uni idrok etishi natijasida paydo bo'ladigan estetik his-tuyg'ular asosida ma'lum ehtiyojlarning yuzaga kelishi, unga ko'ra musiqiy-nazariy bilimlarni egallashi va undan e'tiqodga aylanishi asosida paydo bo'lgan musiqiy mahorat hamda malaka va ko'nikmalarning muayyan faoliyatga aylanishi jarayonidir. Xullas, musiqiy madaniyat deganda musiqa vositasida nafosatni his etish, ulardan zavqlanish, asrab-avaylash va boyitish evaziga o'zlashtirilgan musiqiy bilim va faoliyati darajasini tushunish mumkin. O'zbek xalqining, eng avvalo, yosh avlodning madaniy-ma'naviy va aqliy kamolotini ta'minlash, shaxsda kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirish, har bir yoshda muayyan narsaga qiziqishni, dunyoni mukammal bilishning tarkib topishi bilan ruhiy muammolarning oldini olish, shu kabi ta'limtarbiyaviy faoliyatlarning aniq tizimini yaratish uchun psixologiya, pedagogika fanlari oldidagi asosiy muammolarni hal etish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarda musiqiy madaniyatni shakllantirish ularning oliy ta'lim muassasasigacha bo'lgan hayotiy tayyorgarligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bunda ularning



Date: 17th June-2026

oliy ta'lim muassasalariga ma'lum amaliy ko'nikma va malakalarga ega holda kelishlari, ularda his-tuyg'u, tafakkur-iroda sifatlari ma'lum darajada shakllangan bo'lishi, milliy madaniyatga nisbatan qiziqish xususiyatining mavjudligi shaxsning kamol topishi uchun asosiy zamin bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqining boy musiqiy merosi jahon xalqlari musiqiy merosi bilan bir qatorda asrlar davomida avloddan avlodga o'tib, musiqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Киямов Н. С., Олий таълим муассасалари талабаларида муסיқий маданиятни шакллантиришнинг педагогик асосларини такомиллаштириш: пед.фан.доктори (DSc) диссер.автореф. Самарқанд – 2019.
3. Культура // Советский энциклопедический словарь. - М., 1989.
4. Orziboev, R. (2023). XITOY VA MARKAZIY OSIYO KO'CHMANCHI QABILALARINING MUSIQIY MADANIYATI RIVOJLANISH JARAYONLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 220-226.

